



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

TALABALARNING YETAKCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi

Qoqon Universiteti Andijon filiali

Annotatsiya.

Ushbu maqolada bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida oliy ta'lim muassasalari talabalarida yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning zaruriyati ilmiy-amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar yordamida yoshlardagi yashirin yetakchilik salohiyatini kashfetish, ularni murakkab ijtimoiy hamda kasbiy munosabatlarga tayyorlash mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotimiz davomida qo'llanilgan interfaol texnologiyalarning samaradorligi amaliy tajriba-sinov ishlari orqali isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar:

yetakchilik, liderlik, kollaborativ o'qitish, muammoli ta'lim, emotsional intellekt, mentorlik, fasilitator.

Аннотация.

В данной статье с научно-практической точки зрения освещается необходимость формирования лидерских качеств у студентов высших образовательных учреждений в современную эпоху глобализации и жесткой конкуренции. Также анализируются механизмы раскрытия скрытого лидерского потенциала у молодежи с помощью современных педагогических и психологических подходов, их подготовки к сложным социальным и профессиональным отношениям. Эффективность интерактивных технологий, примененных в ходе нашего исследования, доказана посредством практических опытно-экспериментальных работ.

Ключевые слова:

лидерство, лидерские качества, коллаборативное обучение, проблемное обучение, эмоциональный интеллект, менторство (наставничество), фасилитатор.

Abstract.

This article scientifically and practically highlights the necessity of developing leadership skills among students of higher educational institutions in today's era of globalization and fierce competition. Furthermore, it analyzes the mechanisms of discovering the hidden leadership potential in youth using modern pedagogical and psychological approaches, as well as preparing them for complex social and professional relations. The effectiveness of the interactive technologies applied during our research has been proven through practical experimental work.

Keywords:

leadership, leadership qualities, collaborative teaching, problem-based learning, emotional intelligence, mentoring, facilitator.

Kirish. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda oliy ta'lim muassasalari oldidagi asosiy vazifa faqatgina o'z sohasining mutaxassislarini tayyorlash emas, balki jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan, jamoani ergashtira biladigan va nostandart vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan yetakchi (lider) kadrlarni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu maqolamizda talabalarining yetakchilik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda ularning shaxsiy xususiyatlari hamda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar yaratib berayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish yo'llari ochib beriladi.

Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi faqatgina talabalarga o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni berish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy jamiyatda mehnat bozori talabalarining ortib borishi, raqobat muhitining kuchayishi hamda globallashuv jarayonlari oliy ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalari nafaqat kasbiy jihatdan yetuk, balki raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan, o'z ustida muntazam ishlaydigan, innovatsion g'oyalarni ilgari sura oladigan hamda zamon talablari va xalqaro standartlarga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan raqamli iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sharoitida ish beruvchilar nafaqat "qattiq ko'nikmalar"ga (hard skills-kasbiy bilimlar), balki

“yumshoq ko‘nikmalar”ga (soft skills), xususan, jamoani boshqarish, nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi yetakchilik sifatlariga ega kadrlarga ehtiyoj sezmoqda.

Talabalik davri shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi karyerasining poydevori yaratiladigan eng muhim palladir. Aynan shu davrda o‘quv jarayoniga shunchaki ma’lumot berish emas, balki talabani ijodkor va mas’uliyatli hamda yetakchi qobiliyatlarini shaxs sifatida shakllantirish mexanizmlarini joriy etish ta’lim muassasalarining bosh strategik vazifasiga aylanmog‘i lozim. Ushbu maqolamizda asosiy vazifasi-talabalarda yetakchilik qobiliyatini yuzaga chiqarishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini ilmiy asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Insonlarda yetakchilik qobiliyatlarini tarbiyalash va uning psixologik asoslarini o‘rganish masalasi uzoq yillardan buyon ko‘plab nufuzli olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Jahonga mashhur liderlik bo‘yicha ekspert Klassik yondashuvlarda, xususan, Jon Maksvellning o‘z asarlarida liderlik nasldan-naslga o‘tuvchi tug‘ma qobiliyat emas, balki hayotiy tajriba va doimiy o‘z ustida ishlash orqali shakllanadigan ijtimoiy ko‘nikma sifatida e’tirof etiladi [1]-deb ta’kidlab o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Deniel Goulman ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra, insonda yetakchilikning emotsional intellekt (EQ) bilan bog‘liqligini isbotlab, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish empatiya yetakchining eng kuchli quroli ekanligini ta’kidlaydi [2].

B. Bass va B. Avolio o‘z tadqiqotlarida transformatsion yetakchilik nazariyasini ilgari surib, yetakchining jamoani umumiy maqsadlar yo‘lida ruhlantirish qobiliyatini tahlil qilganlar [3]-deb ta’kidlab o‘tadi.

Bizning fikrimizcha, talabalarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish jarayoni faqatgina tashqi muhitga bog‘liq bo‘lmay, balki ta’lim mazmunining qanchalik muammoli va kreativ tashkil etilganligiga bevosita daxldordir. Ya’ni, talaba dars jarayonida tayyor bilimlarni iste’mol qiluvchi emas, balki yechimi noaniq bo‘lgan vaziyatlarda qaror qabul qiluvchi subyektga aylanishi lozim. Shuningdek, ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borgan hamda mahalliy pedagogika maktabining yetuk vakillari hisoblangan N. Muslimov hamda B. Xodjayevlarning ilmiy izlanishlarida talabalarining kasbiy kompetensiyasi va ijodkorligini o‘stirishda faol va muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘rni beqiyos ekanligi mahalliy sharoitlar doirasida keng tahlil qilingan [4, 5].

Biroq, so‘nggi yillardagi xorijiy tadqiqotlar oliy ta’limda yetakchilik tushunchasiga butunlay yangicha burchak ostida-“O‘qituvchi yetakchiligi” (Teacher Leadership) nuqtai nazaridan yondashmoqda. Xususan, xorijlik olimlar Nguen va Snuklarning o‘zlarining ilmiy izlanishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarda yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish faqatgina ma’muriy lavozimlar (direktor yoki o‘rinbosar bo‘lish) uchun emas, balki sinf xonasida ijobiy psixologik iqlim yaratish, o‘quvchilarni ruhlantirish va ta’lim jarayoniga mustaqil o‘zgartirish kirita oluvchi “o‘zgarishlar agenti” (change agent) bo‘lishi uchun zarurligini asoslab o‘tdi [6] o‘tganligini ilmiy maqolalarda uchratishimiz mumkin.

Shuningdek, Snuk hamda boshqa olimlarning tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarning yetakchilikka tayyorlik darajasini tahlil qilib, ta’lim tizimidagi islohotlar aynan pedagoglarning liderlik kompetensiyalariga bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tgan [7].

Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar o‘qituvchini nafaqat bilim beruvchi, balki mutlaq ijtimoiy lider sifatida qabul qiladi. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf

o'qituvchilarida talabalik davridan boshlab kollaborativ va emotsional yetakchilikni shakllantirishni eng dolzarb vazifa deb hisoblaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mazkur maqola doirasida qator ilmiy-amaliy metodlardan unumli foydalanildi. Xususan, muammoning nazariy qismini o'rganish maqsadida xorijiy va mahalliy adabiyotlar qiyosiy tahlil qilindi. Amaliy qismida esa oliy ta'lim muassasasining bakalavriat kunduzgi boshlang'ich ta'lim yo'nalishda 2-bosqichida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida pedagogik kuzatuv, intervyu va ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi. Talabalardagi yetakchilik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun dars jarayonlariga asosan quyidagi uchta guruhdagi texnologiyalar bosqichma-bosqich tatbiq etildi:

Hamkorlikka asoslangan (Kollaborativ) ta'lim texnologiyalari: Bu bosqichda darslar to'liq o'qituvchi monologidan voz kechgan holda, talabalarining kichik guruhlardagi hamkorligiga qurildi. O'qituvchi bilim beruvchi emas, balki jarayonni to'g'ri o'zanga buruvchi "fasilitator" vazifasini bajardi. Shuningdek, talabalarining tahliliy fikrlashini o'stirish uchun loyiha ishlari va "Aql xaritasi" (Mind map) tuzish metodlari qo'llanildi.

Muloqot va amaliy ko'nikmalarni o'stiruvchi texnologiyalar: Bunga ochiq debatlar, key-stadi (Case-study) hamda simulyatsion rolli o'yinlar kiritildi. Auditoriyada sun'iy ravishda kasbiy muammoli vaziyatlar yaratilib, talabalarga navbatma-navbat guruh "lideri" bo'lish hamda inqirozli vaziyatdan chiqish qarorini qabul qilish mas'uliyati topshirildi.

Psixologik qo'llab-quvvatlash va refleksiya texnologiyalari: Talabalardagi auditoriyadan qo'rqish hissini yo'qotish uchun maxsus psixologik treninglar o'tkazildi. O'quv jarayonida "mentorlik" qoidalari joriy qilinib, talabalar bajarilgan loyiha so'ngida bir-birlariga xolis baho berishga (o'zaro refleksiya) o'rgatildi.

Shu borada boshlang'ich ta'lim yo'nalishdagi talabalarda yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi metodikalardan ham foydalanib o'tdik ular quyidagilardan iboratdir.

"Aqliy hujum" (Brainstorming) metodi	"Munozara" (Debate) metodi	"Rol o'ynash" (Role play) metodi
"Aqliy hujum" metodikasida biz talabalarda ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod jarayonida talabalar muayyan muammo yoki vaziyat yuzasidan erkin tarzda o'z g'oyalarini bildiradilar va turli yechimlarni taklif qiladilar. Metodning asosiy xususiyati shundaki, muhokama davomida bildirilgan fikrlar tanqid qilinmaydi, aksincha	"Munozara" metodi talabalarni muayyan mavzu yoki muammo yuzasidan o'z fikrini asoslab berishga o'rgatadigan samarali pedagogik metodlardan biridir. Bu metod jarayonida talabalar ikki yoki undan ortiq guruhlariga bo'linib, berilgan masala yuzasidan o'z qarashlarini dalillar orqali himoya qiladilar. Munozara jarayonida har bir talaba o'z fikrini aniq	"Rol o'ynash" metodi ta'lim jarayonida real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarni faol ishtirok etishga undaydigan interfaol metodlardan biridir. Ushbu metod jarayonida talabalar ma'lum bir vaziyatga mos ravishda rahbar, tashkilotchi, jamoa a'zosi yoki boshqa ijtimoiy rolni bajaradilar. Bu orqali ular turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday qaror qabul qilish va jamoani qanday boshqarish

barcha g'oyalar yig'ilib, keyinchalik tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish talabalarda tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarga tezkor yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Yetakchilik faoliyatida muammolarni tezkor tahlil qilish va turli g'oyalarni ilgari surish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli "Aqliy hujum" metodi talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Natijada talabalar muammoga turli nuqtai nazardan qarash, jamoa bilan fikr almashish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish hamda qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.	ifodalashga, boshqalarning fikrini tinglashga va tahlil qilishga harakat qiladi. Ushbu metod talabalarda muloqot madaniyatini, nutq madaniyatini hamda jamoa oldida erkin chiqish qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yetakchi shaxs uchun jamoa bilan samarali muloqot qilish, o'z fikrini asosli ravishda yetkazish va boshqalarni ishonтира olish muhim sifatlar hisoblanadi. Natijada talabalar o'z fikrini asoslash, mantiqiy dalillar keltirish, jamoa bilan samarali muloqot qilish hamda qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu esa ularning kommunikativ va yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.	kerakligini amaliy jihatdan o'rganadilar. Mazkur metod talabalarda mas'uliyat hissini, tashabbuskorlikni hamda muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, liderlik faoliyatida turli vaziyatlarni to'g'ri baholash va jamoani boshqarish ko'nikmalari muhim hisoblanadi. Natijada talabalar jamoa bilan ishlash, vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish hamda lider sifatida tashabbus ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Bu esa ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.
---	---	--

Yuqorida boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi talabalarda tajribadan o'tkazilgan metod va pedagogik texnologiyalarimiz talabalarda yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur metodlarning ta'lim jarayonidagi amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida tadqiqotimiz doirasida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqotimiz jarayonida talabalar tasodifiy tanlov asosida nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida o'quv jarayoni an'anaviy o'qitish usullari asosida tashkil etilgan bo'lsa, tajriba guruhida esa talabalarning faolligini oshirish hamda ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar, simulyatsion yondashuvlar va hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan keng foydalanildi.

Muhokama va natijalar: Taklif etilayotgan interfaol metodlar (Aqliy hujum, Munozara, Rolli o'yinlar) va pedagogik texnologiyalarning amaliy samaradorligini isbotlash maqsadida tadqiqotimiz doirasida maxsus tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajribada boshlang'ich ta'lim

yo'nalishining 2-bosqichida tahsil olayotgan jami 60 nafar talaba tasodifiy tanlov asosida teng ikki guruhga: Nazorat guruhi (30 nafar) va Tajriba guruhiga (30 nafar) ajratildi.

Nazorat guruhida darslar an'anaviy akademik uslubda olib borilgan bo'lsa, tajriba guruhida faollikni oshiruvchi va yetakchilik salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi interfaol hamda simulyatsion yondashuvlardan foydalanildi. Talabalardagi yetakchilik qobiliyatlarining o'sish dinamikasini aniq baholash uchun tajriba boshida va bir semestr yakunida ikkita xalqaro e'tirof etilgan standartlashtirilgan psixologik metodikadan foydalanildi:

KOS-2 metodikasi (Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash).

N. Xoll metodikasi (Emotsional intellekt va empatiya darajasini o'lchash).

Olingan statistik natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida ijobiy o'sish ko'rsatkichlari keskin ortgan (1-jadval).

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarida talabalar yetakchilik qobiliyatlarining o'sish dinamikasi (Yuqori daraja ko'rsatkichlari, % hisobida)

Baholash mezonlari (Metodikalar)	Guruhlar	Tajribadan oldin (%)	Tajribadan keyin (%)	O'sish ko'rsatkichi (%)
Tashkilotchilik va jamoani boshqarish qobiliyati (KOS-2)	Nazorat guruhi	36,6%	43,3%	+ 6,7%
	Tajriba guruhi	33,3%	70,0%	+ 36,7%
Emotsional intellekt va empatiya (N. Xoll testi)	Nazorat guruhi	40,0%	46,6%	+ 6,6%
	Tajriba guruhi	43,3%	76,6%	+ 33,3%

Quyidagi jadvaldagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bir semestr davom etgan tajriba-sinov yakunida an'anaviy ta'lim olgan nazorat guruhida tashkilotchilik va emotsional intellekt ko'rsatkichlarining yuqori darajasi atigi 6-7 foizga o'sgan. Interfaol usulda ta'lim olgan tajriba guruhidagi talabalarda esa jamoani boshqarish va o'ziga bo'lgan ishonch ko'rsatkichi 36,7 foizga, inqirozli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va emotsional intellekt darajasi esa 33,3 foizga o'sganligi qayd etildi.

Ayniqsa, doimiy ravishda "Rolli o'yinlar" va guruh "debatlar"ida qatnashish talabalardagi passivlik va auditoriyadan qo'rqish hissini sindirdi. Ular nafaqat mustaqil qaror qabul qilishni,

balki xato qilishdan qo'rqmaslik va jamoa muvaffaqiyati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi haqiqiy pedagog-liderlarga xos fazilatlarini amalda o'zlashtirdilar.

Xulosa qilib aytganimizda, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish shunchaki nazariy ma'ruzalar orqali amalga oshadigan jarayon emas. U doimiy, maqsadli va maxsus loyihalashtirilgan interfaol pedagogik texnologiyalarni talab etadi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida kollaborativ o'qitish, "Aqliy hujum", "Munozara" va "Rolli o'yinlar" kabi metodlarning muntazam qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilarning tashkilotchilik qobiliyatlarini 36,7 foizga, emotsional intellekt va inqirozli vaziyatlarni boshqarish darajasini esa 33,3 foizga oshirishi ilmiy jihatdan o'z isbotini topdi.

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, dars muhitiga muammoli vaziyatlar va simulyatsion o'yinlarni singdirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining nafaqat bilim beruvchi xodim, balki kichik yoshdagi o'quvchilar jamoasini ergashtira oladigan, o'z emotsiyalarini to'g'ri boshqaradigan "o'zgarishlar agenti"-haqiqiy lider bo'lib yetishishida asosiy tayanch vazifasini o'taydi.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy xulosalardan kelib chiqib, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari suramiz:

Oliy ta'lim muassasalarining pedagogika, xususan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasidagi mutaxassislik fanlari doirasiga "Pedagogik yetakchilik va emotsional intellekt asoslari" nomli maxsus amaliy modullarni integratsiya qilish.

Auditoriya mashg'ulotlarida an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, talabani passiv tinglovchidan faol jamoa yetakchisiga aylantiruvchi qisqa muddatli mentorlik (talaba-talabaga ustoz) amaliyotlarini keng joriy etish.

Oliy ta'lim professor-o'qituvchilari uchun talabalarda yetakchilik kompetensiyalarini baholashning xalqaro standartlashtirilgan mexanizmlari KOS-2, N. Xoll testlari bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxwell, J. C. The 21 Irrefutable Laws of Leadership: Follow Them and People Will Follow You. Thomas Nelson Publishers, 1998. p. 11.
2. Goleman, D. What Makes a Leader? Harvard Business Review, 1998. 76(6), pp. 93-102.
3. Bass, B. M., & Avolio, B. J. Improving Organizational Effectiveness Through Transformational Leadership. Sage Publications. 1994.
4. Muslimov, N. A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti. 2007-y.
5. Xodjayev, B. X Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti. . 2017-y.
6. Nguyen, D., Harris, A., & Ng, D. (2020). A review of the empirical research on teacher leadership Journal of Educational Administration, (2003–2017). 58(1), 60-80.
7. Snoek, M., et al. An Exploration of Teacher Leadership: Are Future Teachers Ready to Lead? European Journal of Teacher Education. (2023).

MUNDARIJA

Negmatova Arofatxon Muxtarovna

METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR	3	8
---	---	---

Buranova Dilduzaxon Anvarovna

QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARIDA BO'LAJAK AGRAR SOHA MUTAXASSISLARINING MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	9	14
---	---	----

Баранова Татьяна Анатольевна

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ УНИВЕРСИТЕТА	15	19
---	----	----

Davlatov U.X., Parmanova P.T., Eshqo'ziyev D.D.

GLOBALASHUV SHAROITIDA OLIY TIBBIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL TAMOIILLARI	20	24
--	----	----

Mo'minova Nilufar Abduvaxobovna

ABDURAHMON SA'DIYNING "ALISHER NAVOIY QARASHLARI" TO'G'RISIDA	25	31
---	----	----

Djalilova Dilnozaxon Obidjanovna

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING GERMENEVTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA UNING METODIK TA'MINOTI	32	37
--	----	----

Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

FIZIKA FANINI O'QITISHDA ADAPTIV O'QUV TIZIMLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	38	40
--	----	----

Zulunova Mokhlaroym Abdurashid qizi, Yo'Ichiboyeva Oysarakhon Sharifjon qizi

OLIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISHDA BLENDED LEARNING VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI	41	46
---	----	----

Душабаева Гуласал Муталибовна

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ	47	50
--	----	----

Баранова Татьяна Анатольевна

МЕТОД CASE-STUDY КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	51	56
---	----	----

Nasirdinova Gulshoda Donyorbek qizi

TALABALARNING YETAKCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	57	62
--	----	----

B.K.Mamadaliyev

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI "KREATIV TEACHER" RAQAMLI TA'LIM MUHITI ORQALI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYADAN AMALIYOTGA	63	68
---	----	----

